

**YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG”
ASARINING MAVZUIY TASNIFI**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti matnshunoslik
va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi
2-kurs magistri Gulomova Maftuna*

Annotatsiya

Mazkur maqolada “Qutadg‘u bilig” asarining mavzuiy tasnifi, unda ilgari surilgan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy, ma’naviy va oilaviy qarashlar tahlil qilinadi. Asarning turkiy adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni hamda undagi ramziy obrazlar orqali berilgan g‘oyaviy mazmun yoritiladi. Shuningdek, o‘zbek olimlarining asar haqidagi ilmiy qarashlari ham keltirilib, mavzularning badiiy talqini ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Qutadg‘u bilig, Yusuf Xos Hojib, mavzuiy tasnif, pandnoma, adolat, axloq, davlat boshqaruvi, turkiy adabiyot.

Annotation

This article analyzes the thematic classification of Yusuf Khos Hojib’s work “Qutadg‘u bilig” and examines its socio-political, moral-educational, spiritual, and family-related ideas. The article highlights the significance of the work in the development of Turkic literature and explains the ideological content expressed through symbolic characters. In addition, the scholarly views of Uzbek researchers on the work are presented, and the artistic interpretation of its themes is revealed.

Keywords: Qutadg‘u bilig, Yusuf Khos Hojib, thematic classification, didactic literature, justice, morality, public administration, Turkic literature.

Аннотация

В данной статье анализируется тематическая классификация произведения «Кутадгу билиг» Юсуфа Хос Ходжиба, а также раскрываются отражённые в нём общественно-политические, нравственно-воспитательные, духовные и семейно-бытовые идеи. Освещается значение произведения в развитии тюркской литературы и идейное содержание, выраженное через символические образы. Кроме того, приводятся научные взгляды узбекских исследователей на произведение и раскрывается художественная интерпретация его тематики.

Ключевые слова: Кутадгу билиг, Юсуф Хос Ходжиб, тематическая классификация, назидательная литература, справедливость, нравственность, государственное управление, тюркская литература.

Kirish

XI asr turkiy adabiyotining yirik namoyandasi Yusuf Xos Hojib tomonidan yaratilgan “Qutadg‘u bilig” asari Sharq mumtoz tafakkurining nodir namunalaridan biridir. Asar 1069–1070-yillarda yozilgan bo‘lib, qoraxoniylar davridagi siyosiy, ijtimoiy va ma‘naviy hayotni aks ettiradi. “Qutadg‘u bilig” nomi “Saodatga eltuvchi bilim” degan ma‘noni anglatadi. Asarda davlat boshqaruvi, insoniy fazilatlar, ilm-ma‘rifat, axloq va odob masalalari chuqur badiiy-falsafiy talqin etilgan.

Akademik Bertels “Qutadg‘u bilig”ni “turkiy xalqlarning siyosiy-axloqiy qomusi” deb baholagan. Darhaqiqat, asar mavzu jihatidan nihoyatda keng qamrovli bo‘lib, unda davlat va jamiyat hayotining deyarli barcha muhim masalalari o‘z aksini topgan.

Hojibshunos olim Qayum Karimov asar haqida qismida “Qutadg‘u bilig qanday asar?” dagan savolni qo‘yadi va bunga quyidagicha javob beradi: “Avvalo, u adabiy asar, badiiy adabiyotning tipik namunasi. Lekin u epopeya ham emas, to‘lig‘i bilan lirik ruhda ham emas, drama ham emas. U ahloq, odob, ta‘lim va tarbiya hamda ma‘naviy kamolotning yo‘l-yo‘riqlarini, unsurlarini, chora-tadbirlarini, mujassamlashtirgan, jam qilgan qomusdir...Lekin u tom ma‘noda didaktik asar, ta‘lim-tarbiya va odob-axloq darsligidir”.¹

Asar bir qancha mavzularni o‘zida jam qilgan. Eng avvalo, hukmdorlar va siyosiy masalalarga bag‘ishlangan boblarga e‘tiborimizni qaratamiz. Asar qoraxoniylar davlatini boshqarish borasida yo‘riqnoma vazifasini o‘tashi lozim edi. Asarda hukmdorning ro‘li, uning xalqi oldidagi ma‘suliyati, odob va tartibni saqlash, davlatni boshqarishda kerak bo‘luvchi sifatlar haqidagi fikrlarini aytadi. “Qutadg‘u bilig”ning Boqijon To‘xliyev tomonidan qilingan tabdilida “Kuntug‘di hikoyasi” qismida shunday deyiladi: “Kuntug‘di ismli elig (podsho) bo‘lib, u dono va adolatli ekanligi bilan dong taratgan edi. Uning himmat va muruvvati ham chek-chegara bilmas edi. Elig mamlakatni obod, el-yurtni esa shod-xurram qilish istagi bilan yonardi. Uning shuhrati butun olamga yoyiladi. Ishlarini oliyjanoblik va saxovat bilan yuritganidan mamlakatda farovonlik va osoyishtalik hukm surar edi. Podsho mamlakatdagi barcha donishmandlarni ham ezgulik ishlariga jalb etadi.

Jam etdi olamning saralarini,
Bilimdon, odamning saralarini”.

Asarning eng muhim qatlamlaridan biri axloqiy-ta‘limiy mavzulardir. Unda inson odobi, til madaniyati, kamtarlik, saxovat, rostgo‘ylik kabi fazilatlar keng yoritilgan. Yusuf Xos Hojib til odobiga alohida e‘tibor beradi: “Til insonni ulug‘laydi, til insonni xor qiladi”.

¹ Каримов .Қ. Қутадғу билиг. – Тошкент. Фан нашриёти, 1971. – Б 24.

Shuningdek, turli kasb egalari haqida so‘z yuritadi. Ularning vazifalari haqida ham eslatib o‘tadi. Shulardan biri tabiblarni hamma vaqt kerakli bo‘lgan kasb egalari ekanliklarini, har bir tirik jon umrida bir marta bo‘lsa ham ishi tushadigan g‘oyat manfaatli kishilargigini aytadi:

Ulardan biri bu tabiblar turur,
Hamma dard, kasallarga hoziq erur.

Yana kerakli kasblardan biri astranom, astrolog, osmon jismlarini kuzatuvchilar ekanligini aytib, ular oy, yil, kun hisobini yuritib, bizni ob-havo haqida ham ma‘lumotga ega bo‘lishimizga yordam berishlarini aytadi:

Yil, oy, kun hisobi bularda bo‘lar,
Keraklidir ushbu hisob, ey unar.
Shoirarni madh etib shunday deydi:
Yana keldi shoir bu so‘z terguchi,
Kishin madh etuvchi yoki so‘kguchi.
Qilichdan ham o‘tkir bularning tili,
Va qildan nozikroq xotirlash yo‘li.
Ular maqtasa, madhi elga borar,
Agar suksa, inson nomi bulg‘onar.²

Yusuf o‘ziga xos ziyraklik bilan dehqonlar, savdogarlar, chorvadorlar, hunarmand va kosiblar, kambag‘al-qashshoqlar haqida gapirib ularning hayoti, sharoiti, mafkuralari, odatlari, axloqlari kabi sohalarda nozik fikrlar yuritadi.

Dehqonlar haqida so‘z yuritar ekan, ular tufayli yeyish-ichish joyida bo‘lishi va qimirlagan jonga ulardan naf ekanligini aytib, ularni “saxiy” deb ataydi:

DEHQONNING QO‘LI KENG

Tag‘in bir toifa bo‘ladi - dehqon,
Kerakli kishilar bular har qachon,
Bular bilan yaqin bo‘lgin hamisha,
To tomoq tashvishin bilmasdan yasha.

SAVDOGAR - NOMINGNI ELGA YETKAZAR

Bundan bo‘lak guruh qoldi - savdogar,
Savdo bilan tinmay olar foydalar,
Ularda bo‘lar bu olam orzusi,
El-yurt go‘zalligi, sara, ezgusi,

“Chorvador – hamma hayvonlarga sardor” deb nom qo‘ygan bobida chorvadorlar haqida quyidagi baytlarni keltiradi:

Bulardan bo‘lagi bo‘ldi chorvador,
Hamma hayvonlarga ulardir sardor.

² Каримов .Қ. Қутадғу билиг. – Тошкент. Фан нашриёти, 1971. – Б 35ю

Butun, chin bo‘lurlar, yo‘q yer - bog‘ mulki

Kishilarga tushmas ularning yuki.

“Qutadg‘u bilig”da oilaviy munosabatlar, farzand tarbiyasi va jamiyatdagi odob-axloq masalalari ham muhim o‘rin egallaydi. Muallif oilani jamiyatning tayanchi deb biladi. Asarda ota-onaning farzand oldidagi burchi haqida shunday deyiladi:

“Farzandni bilim va hunar bilan tarbiyala”.

Yusuf Xos Hojibning o‘sha davrlarda yosh oila farzand kutayotgan lahzalardanoq tarbiya ilmini o‘rganishi zarur, degan muhim g‘oyalari fikrimizning yorqin dalilidir:

O‘G‘IL-QIZ TUG‘ILSA...

O‘g‘il-qiz tug‘ilsa, yaxshi bilki, bas,

Uyda tarbiya qil, boshqa yerdamas.

Ustozning yaxshisin tanla albatta,

O‘g‘il-qiz pok o‘sar, yomondan chetda.

Muallif yoshlarni halollik, mehnatsevarlik va kattalarga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Bu jihatlar asarning didaktik xarakterini yanada kuchaytiradi.

Yusuf Xos Hojib jamiyat takdirini hal etuvchi eng ulug‘ mansabdorlardan tortib, oila a‘zolarigacha bir-biriga bo‘lgan muomala, munosabat masalalarini ham hayotiy misollar vositasida yoritadi. Katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug‘larga, amaldor va mansabdorlarning o‘z xizmatchilariga, xizmatchilarning o‘z xo‘jalariga, turli ijtimoiy guruh a‘zolarining bir-birlariga, oilada oila a‘zolarining bir-birlariga muomala madaniyatining eng oddiy ko‘rinishlarigacha tasvirlab, kishining ko‘z oldida yaqqol namoyon etadi. Olim ulug‘lar va kichiklar o‘rtasidagi xulq-odob qoidalari haqida gapirar ekan, shu asnoda kamtarlik, salomlashish odobi, talablari, qoidalarni ham tavsiya etadi. Salomlashish odobi haqida shunday baytlar keltiriladi:

Omon berdi yerga salom qiluvchi,

Salomatlik topdi alik oluvchi.

Salom bo‘ldi odam tinchiga garov,

Sog‘lik olar salom bilan qoluvchi.

Olim Fitrat “Qutadg‘u bilig”ni turkiy xalqlarning ma‘naviy tafakkurini aks ettirgan buyuk yodgorlik sifatida baholagan.

Xulosa qilib aytganda, “Qutadg‘u bilig” asari mavzu jihatidan serqirra va qomusiy xarakterga ega bo‘lgan nodir adabiy yodgorlikdir. Unda davlat boshqaruvi, adolat, axloq, ilm-ma‘rifat, oilaviy munosabatlar hamda tasavvufiy-falsafiy qara shlar o‘zaro uyg‘un holda tasvirlangan. Yusuf Xos Hojib asar orqali komil inson va ideal jamiyat haqidagi qarashlarini badiiy-falsafiy usulda ifodalagan. Shu sababli “Qutadg‘u bilig” bugungi kunda ham o‘z ilmiy va ma‘naviy ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. – Toshkent: Fan, 1971.
2. Karimov Q. Qutadg‘u bilig talqinlari. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
3. Mallayev N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976.
4. Bertels E. Turkiy xalqlar adabiyoti haqida tadqiqotlar. – Moskva, 1965.
5. Fitrat. Eng eski turkiy adabiyot namunalari. – Toshkent: Fan, 2006.
6. Valixo‘jayev B. Mumtoz adabiyot tarixi. – Samarqand, 2002.
7. Rustamov A. Qutadg‘u bilig poetikasi. – Toshkent, 1985.

